

**BO’LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING
NUTQ MADANIYATI VA KOMMUNIKATIV MAHORATI****Uljayeva Sevara Abdirazzoqovna***Shahrisabz davlat pedagogika instituti**Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) magistranti*sevarauljayeva28@gmail.com

+998906162589

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarbiyachining nutq madaniyati, kommunikativ mahorati, ularning tarbiyaviy jarayondagi o’rni va ahamiyati haqida so’z yuritiladi. Nutq madaniyati tarbiyachining kasbiy kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismi bo’lib, bolalarning nutqiy rivoji, muloqot ko’nikmalari va shaxs sifatida kamol topishida muhim omil sanaladi. Maqolada tarbiyachining nutq madaniyati tarkibi, muloqotning pedagogik funksiyalari hamda kommunikativ mahoratni rivojlantirishga oid metodik yondashuvlar bayon etilgan.

Kalit so’zlar: Tarbiyachi, nutq madaniyati, kommunikativ mahorat, muloqot, pedagogik muloqot, bog’cha ta’limi, pedagogik kompetensiya.

Annotation: This article explores the importance of speech culture and communicative competence in the professional development of preschool educators. It analyzes the essential components of a teacher’s speech culture, interpersonal communication skills, and their impact on the educational process. The article emphasizes the need for future educators to develop clear, literate, ethical, and effective communication skills in order to successfully interact with children, colleagues, and parents.

Keywords: speech culture, communicative competence, preschool educator, communication ethics, pedagogical communication, professional skills

Yosh avlodni tarbiyalash va o’qitish xalq ta’limi sistemasining boshlang’ich bo’g’ini bo’lgan maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlanadi. Bolalar bog’chasida ta’lim-tarbiyani tarbiyachi-pedagog amalga oshiradi. U pedagogi jarayonda markaziy o’rinni egallaydi. Shuning uchun tarbiyachi o’z sohasini chuqur bilishi, har xil metodik vositalarni yaxshi egallagan, puxta pedagogik, psixologik tayyorgarlikka ega bo’lishi kerak.

Zamonaviy ta’lim tizimida tarbiyachining kasbiy mahorati nafaqat bilim va ko’nikmalarga, balki uning muloqot madaniyatiga ham bevosita bog’liqdir. Muloqot madaniyati tarbiyachining bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan o’zaro munosabatlarida asosiy vosita hisoblanadi. Shu bois bo’ljak tarbiyachilarda muloqot madaniyatini

shakllantirish pedagogik tayyorgarlikning muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. Tarbiyachining pedagogik mahorati ko'p qirralidir. Mahorat kasbiy tayyorgarlikdan, nazariy bilim va ish tajribasini doimo oshirib borishdan, bolalarga bo'lgan muhabbatdan vujudga keladi.

Bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ mahoratni shakllantirish muntazam mashq, nutqiy treninglar, amaliyot davomida o'zini sinab ko'rish, nutq madaniyati bo'yicha maxsus darslar va mustaqil izlanishlar orqali shakllanadi. Ular o'z ustida ishlagan sari nutq ravonligi, fikrni izchil bayon qila olish qobiliyati, bolalar bilan emotsional aloqani to'g'ri o'rnatish mahorati yanada kuchayadi. Bu jarayonda pedagogik takt, ya'ni vaziyatga mos ravishda to'g'ri, yumshoq, muloyim tarzda muloqot qilish ham alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'lim jarayoni tarbiyachidan kommunikativ kompetensiyaning yuqori darajada bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun bo'lajak tarbiyachilar nafaqat nazariy bilim, balki amaliy faoliyatda ham muloqot madaniyatini mustahkamlab borishi, inson psixologiyasi bo'yicha bilimlarini kengaytirishi va pedagogik muloqotning nozik qirralarini chuqur o'rganishi zarur.

Nutq madaniyati tarbiyachilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarida to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgilarini tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim. Shundan kelib chiqqan holda nutq madaniyati: o'z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda turli sharoitlarda bayon eta olish vositalarini, ma'noni turli shakllarda bera olish yo'llarini, badiiy, ilmiy, ijtimoiy asarlarni o'rganib, ular haqidagi fikr-mulohazani, shaxsiy munosabatni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri bayon eta olish madaniyatini ifodalaydi. Bo'lajak tarbiyachilarda muloqot madaniyati shakllanish jarayoni ularning talaffuzi ravon bo'lishi, so'z boyligi keng bo'lishi, nutq ohangini to'g'ri boshqara olishi, suhbat davomida o'zini erkin tutishi, emotsional barqaror bo'lishi kabi ko'plab jihatlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, tinglay olish mahorati ham muloqotning muhim qismlaridan biridir. Chunki pedagog nafaqat gapira olishi, balki bolalarning ichki holatini, so'zlab bergan fikrlarini diqqat bilan tinglashi, ularni to'g'ri tushunishi va mos munosabat bildirish kerak bo'ladi. Muloqot jarayonida yuzaga keladigan kichik nizolarni yumshoq tarzda hal qila olish, bolalarning his-tuyg'ulariga ehtiyotkorlik bilan yondashish, vaziyatni to'g'ri baholay bilish esa tarbiyachining kommunikativ kompetensiyasining bir bo'lagi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat olib boruvchi pedagog-tarbiyachi bolalarning shaxs sifatida kamol topishida yetakchi o'rin egallaydi. U bolalarga nafaqat mashg'ulotlar jarayonida, balki kundalik hayotda, o'yinlar davomida, birgalikdagi mehnat faoliyatida hamda o'zaro muloqot jarayonida doimiy pedagogik ta'sir ko'rsatadi. Shu bois tarbiyachi har bir bolaga individual yondashishi, ularning yosh va psixologik xususiyatlarini,

qiziqishlari hamda qobiliyatlarini chuqur o‘rganishi muhim hisoblanadi. Har bir bolaning ichki dunyosini anglash, uning ehtiyojlarini sezish va to‘g‘ri yo‘naltirish pedagogik mahoratning muhim ko‘rsatkichidir. Tarbiyachi pedagogik nazokatni namoyon etgan holda bolalarning xulq-atvorini, faoliyati natijalarini adolatli va haqqoniy baholashi, zarur hollarda ularga o‘z vaqtida yordam ko‘rsata olishi lozim. Shuningdek, bolaning oiladagi muhitini, ota-onalar bilan munosabatlarini hisobga olish, tarbiyaviy ishlarni oilaviy tarbiya bilan uyg‘unlashtirish ham tarbiyachi faoliyatining muhim jihatlaridan biridir. Chunki bolaning har tomonlama rivojlanishi ko‘p jihatdan ta‘lim muassasasi va oila hamkorligiga bog‘liq.

Zamonaviy pedagog-tarbiyachining asosiy fazilatlaridan biri — o‘z kasbiga chuqur sadoqat bilan yondashishi, yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo‘lishi va kasbini chin qalbdan sevishidir. Tarbiyachining o‘z kasbiga bo‘lgan mehr-muhabbati, mas‘uliyati va fidoyiligi uning kundalik faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Aynan shu jihatlar pedagog-tarbiyachini boshqa kasb egalardan ajratib turadi va uning jamiyatdagi nufuzini oshiradi.

Pedagog-tarbiyachi shaxsiga qo‘yiladigan muhim talablardan yana biri — u o‘z fanini, ta‘lim-tarbiya jarayonining mazmunini va metodikasini mukammal egallagan bo‘lishidir. Predmetni chuqur bilish, pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo‘lish bolalarda bilimga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi. Shu bilan birga, tarbiyachining bilimdonligi va kasbiy mahorati uning obro‘cini mustahkamlaydi hamda bolalar va ota-onalar orasida ishonch uyg‘otadi. Bolalarni sevish, ularning hayotiga befarq bo‘lmaslik, har bir bolaning shaxsini hurmat qilish tarbiyachi kasbining eng muhim talablaridan hisoblanadi. Faqatgina bolalarga mehr bilan munosabatda bo‘lib, o‘z bilim va kuchini ularning kelajagini barkamol, ma‘naviy yetuk, Vatanga sodiq shaxslar qilib tarbiyalashga bag‘ishlay oladigan inson haqiqiy pedagog-tarbiyachi bo‘la oladi. Aksincha, bolalarga loqayd qaraydigan, ularning taqdiri va kelajagi bilan qiziqmaydigan shaxs tarbiyachilik kasbiga mos kelmaydi.

Bolalarga bo‘lgan muhabbat pedagog mehnatini mazmunli, samarali va ma‘naviy jihatdan boy qiladi. Aynan shu mehr tarbiyachiga murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, bolalarning ishonchini qozonish va ta‘lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Tarbiyachining bolalarga bo‘lgan munosabati pedagogik jarayonda tarbiyalanuvchi shaxsni hurmat qilish, uning qadr-qimmatini e‘zozlash hamda unga nisbatan oqilona talabchanlikni uyg‘un holda olib borishni taqozo etadi. Pedagog bilan bola o‘rtasida ishonchli munosabatlarning shakllanishi tarbiyalanuvchida o‘qituvchiga nisbatan ishonch tuyg‘usini paydo qiladi hamda pedagogga bolalar uchun haqiqiy ma‘naviy yo‘lboshchi bo‘lish imkonini beradi. Pedagogik faoliyatning samaradorligi ko‘p jihatdan pedagogda zarur kasbiy qobiliyatlarning mavjudligiga bog‘liq hisoblanadi. Aynan pedagogik qobiliyatlar pedagogik mahoratni egallash uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi.

Pedagogik qobiliyatlar tarkibiga bolalarni kuzata bilish, ularning ruhiy holatini to‘g‘ri anglash, pedagogik tasavvur va tafakkurning rivojlanganligi, diqqatni bir vaqtning o‘zida bir nechta faoliyatga yo‘naltira olish, jamoani tashkil etish qobiliyati hamda samarali pedagogik muloqotni olib borish malakalari kiradi. Ushbu qobiliyatlar pedagogning kundalik faoliyati jarayonida, shuningdek, uni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida bosqichma-bosqich shakllanib boradi. Pedagogik mahorat esa yosh avlodga ta‘lim va tarbiya berish jarayonini yuqori saviyada tashkil etish, uni doimiy ravishda takomillashtirib borish bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab va mas‘uliyatli san‘atdir. Pedagogik mahoratga ega bo‘lgan tarbiyachi o‘z bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantiradi, ta‘lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvlarni joriy etadi hamda har bir bolaning shaxs sifatida barkamol rivojlanishiga xizmat qiladi. Tarbiyachining nutqi emotsional jihatdan to‘laqonli, intonatsion rang-baranglikka ega, yetarli darajada baland va bir maromdagi tezlikda bo‘lishi lozim. Bunday nutq bolalarda qiziqish uyg‘otadi, ularning diqqatini uzoq vaqt davomida ushlab turishga yordam beradi hamda ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Tarbiyachi nutqining emotsional boyligi bolalarning ruhiy holatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatib, ularning kayfiyati va faol ishtirokiga ijobiy ta‘sir etadi.

Bolalar bilan muloqot jarayonida tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz etish qanchalik mumkin bo‘lmasa, nutqning haddan tashqari tez yoki shoshqaloq bo‘lishiga ham yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Shoshqaloq nutq bolalarning mazmunni to‘liq anglashiga to‘sqinlik qiladi, ularning e‘tiborini chalg‘itadi va eslab qolish jarayonini qiyinlashtiradi. Aksincha, nutqning biroz ohista, vazmin sur‘atda olib borilishi bolalar tomonidan yaxshiroq qabul qilinadi. Bunday nutq sur‘ati fikrlarning aniqligini oshiradi, so‘zlarning ma‘nosini to‘g‘ri anglashga yordam beradi hamda bolalarning nutqiy idrokini rivojlantiradi. Bolalar uchun mo‘ljallangan ertaklar, hikoyalar va she‘rlarni ifodali o‘qish jarayonida tajribali tarbiyachilar va badiiy so‘z ustalari odatda og‘zaki nutqqa nisbatan biroz sekinroq sur‘atni tanlaydilar. Bu esa bolalarga matn mazmunini chuqurroq anglash, voqealar ketma-ketligini kuzatish va obrazlarni tasavvur qilish imkonini beradi. Sekinlashtirilgan nutq bolalarning xotirasini faollashtirib, eshitilgan ma‘lumotni mustahkam eslab qolishga yordam beradi. Shuningdek, bunday nutq sur‘ati bolalarning diqqatini jamlashga va tinglash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, nutq tezligi masalasida umumiy qoidalarga qat‘iy bog‘lanib qolish ham to‘g‘ri emasligini unutmash lozim. Badiiy asarlarni o‘qish yoki hikoya qilish jarayonida nutq sur‘atini jadallashtirish yoki sekinlashtirish asarning mazmuni, voqealar dinamikasi va hissiy holatiga mos holda amalga oshirilishi kerak. Masalan, hayajonli yoki keskin voqealar tasvirlanayotgan paytda nutqni biroz tezlashtirish, sokin va tasviriy sahnalarda esa sekinlashtirish badiiy ifodalilikni kuchaytiradi. Natijada nutq sur‘atini ongli ravishda boshqarish tarbiyachining muhim kasbiy ko‘nikmalaridan biri

hisoblanadi. Nutq tezligi, intonatsiya, pauzalar va ovoz balandligining uyg‘unligi tarbiyachi nutqini ta’sirchan, ifodali va bolalar uchun tushunarli qiladi. Bunday nutq orqali tarbiyachi nafaqat bilim beradi, balki bolalarning estetik didini, nutqiy sezgirligini va emotsional dunyosini ham rivojlantiradi.

Xulosa: Bo'lajak tarbiyachilar uchun muloqot madaniyatini egallash kasbiy mahoratning asosiy tarkibiy qismidir. Bu ko'nikma nafaqat professional o'sish, balki bolalarning ma'naviy-ruhiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida muloqot madaniyati va kommunikativ mahoratni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yo‘ldoshev J., Axmedova R. "Pedagogik mahorat" – Toshkent, 2020.
2. G‘ulomov A. "Nutq madaniyati asoslari" – Toshkent, 2019.
3. Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, 2018.
4. Hasanboeva O., Raxmonova D. "Maktabgacha ta’lim pedagogikasi" – Toshkent, 2021.
5. Vigotskiy L.S. "Pedagogik psixologiya".
6. Do‘stmuhammedova SH.A., Nishonova Z.T. va boshqalar. YOsh davrlari va pedagogik psixologiya. -T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
7. Jo‘rayeva B.D. Maktabgacha ta'limni modernizatsiyalash muammolari va rivojlantirish istiqbollari. Xalq ta'limi j., 2008. 5-son. - 114-119 b.
8. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodagnostikasi. -T.: TDPU, 2017. 21